

Abstract

This article is devoted to the introduction of new methods of teaching English in preschool institutions, defining the goals and objectives of each teacher of English. Using, how to apply accurate and effective English language skills for children.

Keywords: learning, foreign language, method.

Hozirgi kunning eng dolzarb va qiziqarli mavzusi bu maktabgacha ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'rgatish tartibini o'rganish va yangidan tadbiriq qilishdir. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishchora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tanishib chiqar ekanimiz shuni aytish mumkinki, bugungi kunda xalq ta'limi tizimida jami 4916 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 9680 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi, 211 ta barkamol avlod markazlari mavjud bo'lib, ularda jami 400 ming nafardan ortiq pedagog xodimlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xalq ta'limi vazirligi tizimida pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha 14 ta hududiy institutlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu institutlar maktabgacha ta'lim tizimidagi tarbiyalanuvchilarga ingliz tilini o'rgatish sohasini ham yanada rivojlantirishi maqsadga muvofiq deb o'ylayman zero, O'zbekistonda ham ingliz tilini ya'ni jahon tillaridan biri hisoblangan tilni yanada chuqurroq egallash maqsadida bog'chalarimizda ham ingliz tili o'rgatilmoqda. Ammo dars jarayonlarini biz o'qituvchilar naqadar to'g'ri olib bormoqdamiz va bolalarimiz chindan ham ingliz tiliga mehr qo'ya olishyapti yoki o'zlashtira olayaptimi?

Mening fikrimcha ba'zi o'qituvchilarimiz bolalar bilan ishlashda ko'pgina xato va kamchiliklarga yo'l qo'yishadi. Bolalar ya'ni maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari ingliz tilini o'rganishni chindan ham xohlashmoqdami yoki pedagoglarimizning bolalar bilan ishlash qobiliyati yetishmasligi sabab bolalar ingliz tilini yomon ko'rib qolishyaptimi? Biz bu holatlarni oldindan chuqurroq o'ylab ko'rishimiz kerak zero, bolaga bo'lgan noto'g'ri munosabat uning tilni o'rganishga bo'lgan xohishini va qiziqishini so'ndiradi. Bu esa to'g'ridan - to'g'ri uning kelajagiga ta'sir o'tkazmay qolmaydi. MTM da ingliz tilini o'rgatish uchun maxsus dasturlar tayyorlanib, kurslar tashkil qilinsa va MTMda ingliz tili o'rgatmoqchi bo'lgan o'qituvchilar sertifikat bilan ishga qabul qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Hozirda 2-3 yoshdagi tarbiyalanuvchilarga ham ingliz tili o'rgatilmoqda ammo bu naqadar to'g'ri va mashg'ulotlar qay tarzda olib borilmoqda? Asosiy muammo farzandlarimizga nimani o'rgatish va qay tarzda o'rgatish kabi masalalardir.

Agar farzandlarimizning yoshini o'rtacha 4-5 yoshli tarbiyalanuvchilar deb olsak, ular bilan qanday ishlashimiz kerak. Ya'ni har bir o'quv dargohida bo'lgani kabi MTMda ham ingliz tilini o'rgatish uchun mashg'ulotlar rejasi tuzulishi va haftada nechki bor olib borilishi oldindan tashkillashtirilishi lozim.

Bolalar bog'chasida ingliz tilini o'rganishning asosiy vazifasi bolani o'rganilayotgan tilning boshqa til va madaniyati bilan tanishishning qiziqarli jarayoniga jalb qilishdir. Bolalar bog'chasida ingliz tilini o'rganish jarayoni bilan bog'liq yorqin va ijobiy taassurotlar bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishiga ijobiy turtki bo'lib xizmat qiladi. To'g'ri ovozli talaffuzni shakllantirishga, tilning boshlang'ich so'zlashuvini o'zlashtirishga va so'z birikmalarining asoslarini o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi. Ingliz tilini o'rganish o'yin harakatlari orqali amalga oshiriladi: chizma, qo'shiq, she'r, audio materiallardan foydalanish bunda qo'l keladi.

Xorijiy tilni o'rganishni boshlash uchun qaysi yosh yaxshiroq? Barcha bolalar har xil va, albatta, bu savolga javob berish juda ham qiyin. Olimlar erda yoshda ikkinchi tilni

¹Абсамадова Мунира Исроиловна, преподаватель, Самаркандский государственный институт иностранных языков, Узбекистан.

o'rganishni boshlagan bolalar o'z tengdoshlariga qaraganda yuqori IQga ega ekanligini isbotladilar. Ular osongina xorijiy tillarda so'zlashib keta olishi mumkin.

Ba'zi odamlar esa ona tilida gaplasha olgandan keyin ikkinchi tilni o'rganishni boshlash kerak deb o'ylaydi. Ikki tilli oilalarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, ikki til bilimi bolaning rivojlanishiga to'sqinlik qilmaydi, aksincha, unga faqat bitta tilni gapiradiganlarga nisbatan katta afzallik beradi. Chet tilini kattalar sifatida o'rganish bolalik davridan ko'ra qiyinroq. Shunday qilib, aziz ota-onalar sizlarning bunga fikringiz qanaqa? Farzandim hali ona tilini o'rgana olmayapti, juda ko'p tovushlarni talaffuz qilmaydi, ingliz tilini o'rganishni boshlash mantiqiymi? deb o'ylarsiz?

MTM dagi bolalar ota-onalari ona tilida gapirishdan oldin ingliz tilida gapirishni boshlaydilar. Va bu holatning ajablanarli joyi yo'q - bolalar uchun talaffuzga yaqin bo'lgan so'zlar odatda ingliz tilida ona tilidan ko'ra ko'proq uchraydi (Solishtirish: doll - qo'g'irchoq - dol, mushuk - cat - ket, avtomobil - mashina - ka.) Eng asosiysi, bolaga talaffuz qilish va tushunish oson bo'lishini ta'minlash. Har bir yangi mashg'ulotda bolalar tilning yangi qatlamlarini, so'z boyliklarini o'rganib boradilar. Bolalar ko'p marotaba o'rgangan materialni takrorlaydi, nutqda o'rgangan so'z birikmalarini va konstruktiviyalardan qanday foydalanishni tushunadilar.

MTM dagi ta'lim maktabda o'rgatiladigan ingliz tilidan farq qiladi. Maktab yoshidagi bolalar biroz boshqa hil uslublarda, mashqlarda ingliz tilini o'rgansalar bog'cha yoshidagi bolalar esa o'yin harakatlari orqali o'rganishadi.

Nega MTMda chet tilini o'rganishni boshlashingiz kerak?

Chet tillarni erta o'rganish - bu bolaning tug'ilgan davridan boshlab maktabga kelishiga qadar intuitiv-amaliy yondashuv asosida amalga oshiriladigan jarayondir.

MTM yoshidagi bolalar chet tilini o'rganishi uchun hozirda juda qulay bo'lib, bolalar tilni tezda o'zlashtirishlari uchun juda kup resurslar mavjud: hozirgi davrdagi bolalar ayniqsa, til voqealariga sezgir bo'lib, o'zlarining nutq tajribasini, tilning "sirlari" ni tushunishga qiziqishadi

Umumiy qilib olganda, mashg'ulotlarimiz maqsadli bo'lishi ya'ni bolalarimiz kundalik ishlatadigan narsalar, kundalik boradigan joylar, taomlar, o'yinlar, o'yinchoqlar nomlarini o'yin tarzida, qo'shiq tarzida o'rgatish anchayin foydaliroq. Bunday usullar bilan o'rgatish bolalar xotirasida so'zlarning yaxshi qolishini ta'minlaydi.

Ingliz tili mashg'ulotlarini olib borishda foydalanish mumkin bo'lgan boshlang'ish usullar:

-Start at the very beginning.

"Don't assume they know how to do anything. Teach them everything. How to knock at the bathroom door, how to close it behind them, how to wash hands, throw away towels ... routines, routines, routines."

Tarbiyalanuvchilar topshiriqni bajara oladimi yuqmi deya o'ylanmang. Farzandlarimizga xos bo'lgan hamma narsani o'rgatishga harakat qiling. Yuvinish xonasiga qanday kirish, eshikni taqillatish, yopish, qo'llarni yuvish, sochiq bilan artish kabi harakatlarni bajarib ko'rsating. Bunday usullar bolalarning ongini o'sishiga yordam beradi. Ingliz tilini o'rganish bilan birga ular kundalik mashg'ulotlarini ham qanday qilib to'g'ri olib borishni o'rganishadi.

-Take your class on a mini-adventure on the first day.

"I teach routines, rules, but I also go on some kind of 'adventure.' My adventure is going through the school to find where everything is, the bathrooms, the nurse, the front office, the cafeteria (which we practice going through the line), library etc. I've done fishing where I have fish (or a jungle animal if that was my theme) hanging at each place and they collect them in a bucket as we go around taking turns and collecting through the whole school. They love it."

-Bolalarni bog'cha hududi bo'ylab kichik sayohatga olib chiqing. Ularga nima qayerda joylashganini, bog'ni, oshxonani, faollar zalini va boshqa joylarni ko'rsatib, ingliz tilida o'rgating.

-Teach kids how to make friends.

Some of your students will do this naturally. Some of them will need your help. How to be a friend is one of the most important lessons they can leave their first year of school with.

Bolajonlarga qanday qilib do'stlashishni o'rgating. Ba'zi bolalar buni qilishda qiynalmaydilar ammo ba'zilari esa sizning yordamingizga muhtoj bo'lishi mumkin.

Maktabga borishga tayyorlanayotgan bolajonlar uchun do`stlashish darslarini o`zlashtirish juda foydali.

Bring technology (in small doses) into the classroom. Keep in mind that the kids have expectations too! Don` forget to bring technology or use TV set. They love to watch colourful, educational, cartoons with songs. Laugh with your kids. Kindergartners love to laugh as much as the rest of us!

Mashg`ulotlarga albatta zamonaviy texnologiyalarni olib kiring (computer, katonka, proyektor, yoki xonada joylashtirilgan televizor) lardan firdalaning. Bolajonlar rangli, qo`shiq'larga boy va ta`limiy multfilmlarni yoqtirishadi. Tabassum qiling va ko`proq bolalarinigizni kuldiring. Bolalar bizga kattalarga nisbatan ancha quvnoq bo`lishadi.

Xulosa qilib shuni ayta olamanki bu sohada anchayin qilinmagan ishlar va yangiliklar yaratsa bo`ladi. Bolajonlarimiz va ya`ni yosh avlodning kelajagi biz o`qituvchi ya`ni ta`lim-tarbiya beruvchi insonlarga bog`liq. Shuning uchun o`zimizga yuklatilgan vazifani sitqidildan bajarishimiz kerak va bog`cha bolalarining mehrini qozonishimiz muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M Mirziyoyevning 2017-yil 26- sentabr "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi qarori.
2. "Using a signed language as a second language for kindergarten students" by Daniels Marilyn, Child study Journal, Vol 33 №1 March 2003
3. "The Risk screening test:Using Kindergarten teachers` ratings to predict future placement in resource classrooms" by Coleman, J.Michael; Exceptional children, Vol 59,№5, March-april, 1993

© М.И. Абсамадова, 2018.